

MHXS TALABLARIGA O'TISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA BUXGALTERIYA DASTURLARINI MODERNIZATSIYA QILISH

Qo'shayev To'xtasin Abdiquodirovich

Termiz davlat universiteti "Moliya" kafedrasini o'qituvchisi, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) talablariga o'tish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish va mavjud buxgalteriya dasturlarini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Unda avtomatlashtirilgan hisob jarayonlari, dasturiy ta'minotni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruriyati, ilg'or xorijiy tajribalar hamda mamlakatimizda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt va blokcheyn asosida hisob jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari ham ko'rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы использования информационных технологий и модернизации существующих бухгалтерских программ в процессе перехода хозяйствующих субъектов на требования МСФО (Международные стандарты финансовой отчетности). В ней проанализированы автоматизированные учетные процессы, необходимость адаптации программного обеспечения к международным стандартам, передовой зарубежный опыт, а также возникающие в нашей стране проблемы. Кроме того, рассмотрены перспективы развития учетных процессов на основе цифровых технологий, в том числе искусственного интеллекта и блокчейна.

Abstract: This article explores the use of information technologies and the modernization of accounting software during the transition of business entities to IFRS (International Financial Reporting Standards). It highlights automated accounting processes, the need to adapt software to international standards, an analysis of advanced foreign practices, and challenges emerging in Uzbekistan. The study also discusses the prospects of developing accounting processes through digital technologies, including artificial intelligence and blockchain.

Kalit so'zlar: MHXS, buxgalteriya hisobi, axborot texnologiyalari, buxgalteriya dasturlari, modernizatsiya, raqamlashtirish, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: МСФО, бухгалтерский учет, информационные технологии, бухгалтерские программы, модернизация, цифровизация, международные стандарты.

Keywords: IFRS, accounting, information technologies, accounting software, modernization, digitalization, international standards.

KIRISH: Globallashtirish jarayonlari va xalqaro moliyaviy munosabatlar rivojlanishi sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga muvofiq yuritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlanishi nafaqat hisobot shaffofligini ta'minlaydi, balki xorijiy investorlar, moliyaviy institutlar va xalqaro bozor ishtirokchilari uchun ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonda buxgalteriya hisobini milliy standartlardan xalqaro andozalarga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirish jarayoni olib borilmoqda. Bu jarayon nafaqat normativ bazani, balki amaliy jarayonlarni ham qamrab oladi. Xususan, axborot texnologiyalari va buxgalteriya dasturlarini MHXS talablariga moslashtirish milliy iqtisodiyot sub'yektlari uchun asosiy vazifalardan biriga aylandi.

MHXSga o'tish jarayonining zamonaviy tendensiyalari. MHXSning joriy etilishi moliyaviy hisobotni xalqaro tajribalarga yaqinlashtirish, shaffoflik va taqqoslanish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda 140 dan ortiq mamlakatlarda MHXS amaliyotga tatbiq etilgan bo'lib, ular orasida O'zbekiston ham 2021 yildan boshlab ushbu yo'nalishda bosqichma-bosqich harakat qilmoqda.

MHXSga o'tish jarayonida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- a) Moliyaviy hisobotning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash;
- b) Xorijiy investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy ma'lumotlarning taqqoslanishini yo'lga qo'yish;
- c) Xalqaro fond bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;
- d) Milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish.

Biroq mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va buxgalteriya dasturlarini modernizatsiya qilish talab etiladi.

Axborot texnologiyalarining MHXSga o'tishdagi o'rnini. Axborot texnologiyalari (AT) zamonaviy buxgalteriya hisobining asosiy vositasiga aylandi. MHXSga o'tish jarayonida ATdan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Avtomatlashtirilgan hisob jarayonlari – ko'plab hisob-kitoblarni dasturiy vositalar avtomatik amalga oshirib, inson omili ta'sirini kamaytiradi.
2. Ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligi – dasturiy vositalar orqali moliyaviy ma'lumotlar tezkor ravishda qayta ishlanadi.
3. Yagona ma'lumotlar bazasi – turli bo'limlar o'rtasida integratsiyalangan axborot almashinuvini ta'minlaydi.
4. Xalqaro standartlarga mos hisobot shakllari – buxgalteriya dasturlari orqali hisobotlar MHXS talablariga muvofiq avtomatik ravishda tayyorlanishi mumkin.
5. Interfaol nazorat va audit imkoniyatlari – axborot tizimlari auditorlar uchun ham qulay muhit yaratadi.

Buxgalteriya dasturlarini modernizatsiya qilish zaruriyati. O'zbekistonda keng qo'llaniladigan 1S: Buxgalteriya, SAP, Oracle Financials, QuickBooks kabi dasturlar milliy standartlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Biroq MHXS talablariga o'tish jarayonida ularni modernizatsiya qilish zarur bo'ladi.

Modernizatsiya asosiy yo'nalishlari:

- 1) MHXS standartlariga moslashtirilgan hisob siyosatini shakllantirish (masalan, daromadlarni tan olish, aktivlarni qayta baholash, zaxiralarni shakllantirish).
- 2) Moliyaviy hisobotning xalqaro shakllarini joriy etish (balans, foyda va zarar to'g'risida hisobot, pul oqimlari hisoboti).
- 3) Integratsiyalashgan modullarni qo'shish (solliq, audit, menejment hisobini uyg'unlashtirish).
- 4) Ma'lumotlarni muhofaza qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash.

Shuningdek, buxgalteriya dasturlarini MHXS talablariga moslashtirish jarayonida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Amaliy misollar va ilg'or tajribalar:

- a) SAP Business One dasturi orqali xalqaro kompaniyalarda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot avtomatlashtirilgan holda tayyorlanadi.

b) Oracle Financials Cloud dasturi moliyaviy ma'lumotlarni real vaqtda qayta ishlaydi va MHXSga mos hisobot shakllarini avtomatik tayyorlaydi.

c) 1S: IFRS moduli Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida MHXSga mos hisobot tayyorlash uchun keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda ham bir qator yirik korxonalar MHXSga moslashtirilgan dasturiy modullarni joriy qilish ishlarini boshlab yuborgan.

MHXS talablariga o'tishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar

1. Kadrlar malakasining yetarli emasligi – buxgalter va dasturchilarni qayta tayyorlash talab etiladi.
2. Dasturiy ta'minotning litsenziyalash muammolari – ayrim korxonalarda noqonuniy dasturlardan foydalanish holatlari uchraydi.
3. Infratuzilma kamchiliklari – ayniqsa kichik biznes sub'yektlarida zamonaviy texnik vositalar yetarli emas.
4. Kiberxavfsizlik xatarlari – raqamli ma'lumotlarni himoya qilish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Tavsiyalar va istiqbollar:

1. Korxonalarda zamonaviy buxgalteriya dasturlarini bosqichma-bosqich joriy qilish;
2. Buxgalter va dasturchilar uchun MHXS va AT bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
3. Dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari uchun milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda MHXSga mos modullar yaratish;
4. Davlat organlari tomonidan axborot texnologiyalarini joriy etishda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish;
5. Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini tadbiq qilish orqali hisob jarayonlarining ishonchliligi va samaradorligini oshirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Mazkur mavzudagi ilmiy va amaliy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida axborot texnologiyalari hal qiluvchi o'rin tutadi.

Avvalo, mahalliy mualliflar tomonidan nashr etilgan ishlar (Bekmurodov A.SH., Isroilov B.I., Nazarov Q.N., Ro'ziqulov H.)da buxgalteriya hisobining milliy xususiyatlari va axborot tizimlarining rivojlanishi batafsil yoritilgan. Ularda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hisobotlarni avtomatlashtirish, xato va nosozliklarni kamaytirish hamda tezkor axborot taqdim etishda muhimligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobining milliy standartlarining MHXS bilan uyg'unlashmagan jihatlari haqida ham fikrlar bildirilgan.

Xorijiy adabiyotlar (Elliot & Elliot, Horngren va boshqalar)da esa moliyaviy hisobotning nazariy asoslari va xalqaro amaliyotdagi qoidalar atroflicha tahlil qilingan. Ularda ayniqsa, hisobotlarning shaffofligi va qiyoslanishini ta'minlash uchun axborot tizimlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muhimligi qayd etilgan.

IFRS Foundation hamda Deloitte, PwC kabi yirik konsalting kompaniyalarining hisobotlari esa axborot texnologiyalarining zamonaviy tendensiyalariga bag'ishlangan. Ular o'z tadqiqotlarida buxgalteriya dasturlari va ERP tizimlari orqali MHXS talablarini bajarish imkoniyatlari hamda raqamli transformatsiyaning ustunliklari haqida ilmiy-amaliy asoslangan xulosalar bergan.

Shuningdek, www.ifrs.org va www.lex.uz manbalaridan olingan ma'lumotlar normativ-huquqiy asoslar va xalqaro standartlarning rasmiy mazmunini ochib berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlarning tahlilidan ko'rinib turibdiki, MHXSga o'tish jarayonida axborot texnologiyalari va buxgalteriya dasturlarini modernizatsiya qilish masalasi milliy va xalqaro darajada dolzarb

hisoblanadi. Ilmiy ishlar bu jarayonning nazariy asoslarini ochib bersa, konsalting hisobotlari va xorijiy tajribalar uning amaliy yechimlarini ko'rsatib bermoqda.

Tadqiqot usullari: Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, taqqoslash, deduksiya va induksiya usullaridan keng foydalanildi. Xususan, buxgalteriya hisobi milliy standartlarining qoidalari Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bilan taqqoslandi. Shu bilan birga, mavjud buxgalteriya dasturlari va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tahlil qilindi hamda ularni modernizatsiya qilish yo'nalishlari o'rganildi. Empirik ma'lumotlar asosida iqtisodiy sub'yektlarda MHXSga o'tish jarayonida uchrayotgan amaliyot muammolari tahlil qilindi.

Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalar o'rganilib, ilg'or yondashuvlardan chiqarilgan xulosalar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda MHXSga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aniqlangan natijalar quyidagilardan iborat:

1. Axborot texnologiyalarining roli – zamonaviy buxgalteriya dasturlari (1C, SAP, Oracle, ERP tizimlari) BHMSlaridan xalqaro standartlariga o'tishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.
2. Modernizatsiya zaruriyati – ko'pgina korxonalarda amal qilayotgan dasturiy ta'minot MHXS talablarini to'liq qondirmaydi. Shu bois, ularni modernizatsiya qilish yoki integratsiyalangan ERP tizimlarini joriy qilish dolzarb hisoblanadi.
3. Qonunchilik asoslari – normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi axborot texnologiyalarini joriy qilish samaradorligini oshiradi.
4. Ilg'or tajribalar – xorijiy mamlakatlar tajribasi (Evropa IT-tizimlari, AQSH buxgalteriya dasturlari) milliy tizimda raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish uchun qo'llanilishi mumkin.
5. Iqtisodiy samaradorlik – axborot texnologiyalarini joriy qilish hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va tezkorligini ta'minlab, investitsiya muhitini yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va MHXSga o'tish jarayonida axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish iqtisodiy sub'yektlarning moliyaviy axborot sifatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga muvofiq quyidagi **xulosa va takliflarga** keldik:

Xulosa: BHMSlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiqlashtirishda axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya dasturlarini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali:

- a) hisobotlarning aniqligi va ishonchliligi ta'minlanadi;
- b) xalqaro andozalarda talab etilgan shaffoflik va taqqoslanish imkoniyati yuzaga keladi;
- c) korxonalarda hisobot tayyorlash jarayonida vaqt va resurslar tejiladi;
- d) auditorlik va nazorat jarayonlari samaradorligi oshadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalarini to'g'ri tanlash va buxgalteriya dasturlarini takomillashtirish MHXSga bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli o'tish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Takliflar:

1. **Mahalliy buxgalteriya dasturlarini MHXS talablariga integratsiya qilish** – milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda dasturiy ta'minotni yangilash.

2. **Xodimlar malakasini oshirish** – buxgalter va auditorlarni MHXS hamda zamonaviy buxgalteriya dasturlari bilan ishlash bo'yicha muntazam o'qitish.
3. **Yagona axborot platformasini yaratish** – turli sohalaridagi korxonalar uchun standartlashtirilgan axborot bazasi shakllantirish, hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish imkoniyatini kengaytirish.
4. **Kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish** – moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligi va muhofazasini ta'minlash uchun zamonaviy himoya tizimlarini joriy qilish.
5. **Xalqaro tajribani joriy etish** – rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan samarali IT-va buxgalteriya yechimlarini mahalliy sharoitga moslashtirish.
6. **Moliyaviy texnologiyalardan keng foydalanish** – blokcheyn, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlarini amaliyotga kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent: Adolat, 2016 y. (o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent, 2021 y.
3. International Financial Reporting Standards (IFRS). London: IFRS Foundation, 2023.
4. Bekmurodov, A. SH., Isroilov, B. I. Moliyaviy hisob: Darslik. T.: "Iqtisod-Moliya", 2022.
5. Nazarov, Q. N. Axborot tizimlari va texnologiyalari: o'quv qo'llanma. T.: TDIU nashriyoti, 2021.
6. Ro'ziqulov, H. Buxgalteriya hisobida axborot texnologiyalari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
7. Elliot, B., & Elliot, J. Financial Accounting and Reporting. 20th edition. Pearson Education, 2022.
8. Horngren, C. T., Sundem, G. L., & Elliott, J. A. Introduction to Financial Accounting. 12th edition. Pearson, 2021.
9. Kimsanboyev, A. Buxgalteriya dasturlarini takomillashtirish masalalari. "Iqtisod va ta'lim" jurnali. 2023. №2. B. 45–52.
10. IFRS Foundation. The Use of Technology in Financial Reporting. London: IFRS Foundation Publications, 2022.
11. Deloitte. The Future of Accounting with AI and Cloud Technologies. Global Report, 2023.
12. PricewaterhouseCoopers (PwC). Digital Transformation in Accounting and Finance. Report, 2023.
13. www.ifrs.org - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari rasmiy veb-sayti.
14. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
15. www.accountingweb.com - Zamonaviy buxgalteriya va axborot texnologiyalari bo'yicha tahliliy materiallar.